

Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limi qabul kvotalariga e'lon!!

2024 yil uchun O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limining doktoranturasiga qabul qilish bo'yicha quyidagi ixtisosliklar bo'yicha kvotalar mavjud:

№	ixtisosliklar	doktorantura	tayanch doktorantura	stajer-tadqiqotchilar
1	04.00.01 - Umumiy va mintaqaviy geologiya	1	3	2
2	05.02.01 - Mashinasozlikda materialshunoslik. Quymachilik Metallarga termik va bosim ostida ishlov berish. Qora, rangli va noyob metallar metallurgiyasi	-	2	-
3	04.00.14 -Foydali qazilmalarni boyitish	-	2	-
4	06.02.01 - Qishloq xo'jaligi hayvonlarini urchitish, ko'paytirish, seleksiyasi va genetikasi. Ipakchilik. Qorako'lchilik	-	1	-
5	06.01.08 - O'simlikshunoslik	-	1	1
6	02.00.13 - Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi	-	1	-
7	13.00.01 - Ta'lim nazariyasi va tarixi	-	1	-
8	04.00.10- Geotexnologiya (ochiq, yer osti va qurilish)	-	1	-
	JAMI	1	12	3

Tayanch doktoranturaga kiruvchi nomzodlar quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- oliy ta'lim muassasasi magistraturasi diplomi magistr darajasi joriy etilguncha olingan oliy ma'lumot to'g'risidagi diplomga hamda muayyan ilmiy natijalarga, shu jumladan falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya tadqiqoti asosini tashkil qilishi mumkin bo'lgan, ilmiy jurnallar va nashrlarda chop etilgan kamida bitta ilmiy maqola va ilmiy-amaliy konferentsiyalarda tegishli ilmiy yo'nalishlar bo'yicha ilmiy ishlar to'plamlariga kiritilgan ikkita ma'ruza-tezisga ega bo'lish;

- chet tili darajalarini belgilovchi sertifikatni mavjudligi

Tayanch doktoranturaga kiruvchilar - mutaxassislik fanlardan imtihon topshiradilar:

Tayanch doktoranturada o'qishga talabgorlar qabul komissiyasiga phd.mininnovation.uz onlayn platformasi orqali kerakli ma'lumotlarni to'ldirib, quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

- Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limi raisi nomiga ariza;
- pasport nusxasi;
- qisqacha biografik ma'lumotnoma;
- mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi (ishlayotgan talabgorlar uchun);
- oliy ta'lim muassasasi magistraturasi diplomi nusxasi;
- nashr etilgan ilmiy ishlar ro'yxati, shuningdek ularning nusxalari.

Hujjatlar 2023 yilning 15 oktyabrgacha qabul qilindi.

Ma'lumotlar uchun tel: (90) 730-00-77.